

MINTAQADA IQTISODIY-ÉKOLOGIK MEXANIZMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Sapayev Maxsudbek Karimovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Biznes va boshqaruv kafedrasida katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD).

E-mail: sapayev_maxsudbek@urdu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan foydalanish xususiyatlari muhokama qilingan. Shuningdek, mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan samarali foydalanish yuzasidan xulosa va takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Mintaqa, mexanizm, iqtisodiy-ekologik mexanizm, muammo, barqarorlik.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности использования экономико-экологических механизмов в регионе. Представлены выводы и предложения по эффективному использованию экономико-экологических механизмов в регионе.

Ключевые слова: Регион, механизм, экономико-экологический механизм, проблема, устойчивость.

Abstract

This article discusses the features of the use of economic and ecological mechanisms in the region. It also presents conclusions and proposals for the effective use of economic and ecological mechanisms in the region.

Keywords: Region, mechanism, economic and ecological mechanism, problem, sustainability.

KIRISH

So'nggi yillarda iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ekologik omillarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu borada aholi sonining o'sishi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi va tabiiy resurslardan intensiv foydalanish ekologik yuklama darajasini oshiradi. Natijada, mintaqalarda ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib boradi. Bunday sharoitda iqtisodiy-ekologik mexanizmlar ustidan samarali boshqaruv yuritish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligini saqlash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi hamda uning mintaqalar sharoitidagi imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish hamda ushbu hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi 41-son¹ qarori [1] qabul qilingan. Unga ko'ra, amalga oshiriladigan iqtisodiy-ekologik mexanizmlar iqtisodiy vositalar orqali ekologik muammolarni boshqarish, nazorat qilish va tartibga solishga qaratiladi.

¹ <https://test.lex.uz/uz/docs/-5836850>

Ushbu mexanizmlar ekologik talablarga rioya etishni ragʻbatlantiradi va ekologik zarar uchun iqtisodiy javobgarlikni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan samarali foydalanish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Bu boʻyicha atrof-muhitni muhofaza qilishga olib keladigan ekologik yangiliklar va iqtisodiy faoliyatni qoʻllab-quvvatlash bevosita qaror qabul qiluvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Bu esa iqtisodiyot sohasiga ekologik yangiliklarni joriy etish uchun mexanizmlarni shakllantirishni qilishni taqozo qiladi. Baʼzi tadqiqotlarda mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan foydalanish bevosita uning ekologik-iqtisodiy raqobatbardoshligi orqali taʼminlanishi yoritiladi. Yaʼni, mintaqaning ekologik-iqtisodiy raqobatbardoshligi uning iqtisodiy potensialini oʻstirib borish, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va boshqa yangiliklarni joriy qilish asosida uni sifat jihatdan chuqur qayta tuzish va modernizatsiya qilish bilan bogʻliq [3]. Yana bir tadqiqotlarga koʻra, mintaqalarni oʻz ichiga birlashtirgan hududlarning iqtisodiy-ekologik tizimlari mexanizm sifatida tadqiq qilinadi. Unga asosan, hududlarning iqtisodiy-ekologik tizimlari va ularni boshqarish samaradorligi oshirish mexanizmlari bayon etilgan [4].

Boshqa xil tadqiqotlarda esa mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlar sifatida yer resurslaridan samarali foydalanish yoritiladi. Unga asosan, samarali yerlarni boshqarishning yangi jihatlari aniqlangan va yerlardan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari ochib berilgan [5]. Ushbu tadqiqotda toza yerlardan foydalanishning yangi tizimlari tahlil qilingan. Yana bir tadqiqotlarning yoʻnalishi mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan foydalanish qonun hujjatlariga asoslanishini koʻrsatadi. Aniqroq qilib aytganda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari amalga oshirish uchun iqtisodiy mexanizmlar bilan taʼminlanishi zarur [6]. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, mintaqada oʻziga xos tabiiy-iqlim sharoitiga ega boʻlib, iqtisodiy va geografik joylashuvning tarkibiy qismlari soni tufayli uzoq muddatli rivojlanish uchun yetarli imkoniyatlarga ega boʻladi. Bu borada mintaqaviy ekologik va iqtisodiy tizimdagi oʻzaro taʼsirlarni tartibga solish mexanizmining konseptual modeli taklif qilingan boʻlib, unda mintaqaviy iqtisodiyotning bir maromda ishlashi uchun ekologik mezonlarni aniqlash ekologik quyi tizimda amalga oshiriladi [7]. Bu esa tuzatishlarning yetarlicha moslashuvchanligi, tezkorligi va qarorlarning yetarli vakolatini taʼminlaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qoʻllaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan samarali foydalanishda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, maʼlumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy-ekologik mexanizmlar ayni paytda iqtisodiy manfaatlar bilan ekologik talablarni uygʻunlashtiruvchi vosita boʻlib xizmat qiladi. Ular orqali korxonalar va

aholi ekologik talablarga rioya qilishga iqtisodiy rag‘batlantiriladi, ifloslanishning oldi olinadi va tabiiy resurslar qayta tiklanadigan tarzda boshqariladi. Ularning asosiy vazifalari bo‘lib ekologik muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash, ishlab chiqaruvchi subyektlarni ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga undash, chiqindilarni qayta ishlashni rag‘batlantirish va mintaqaning ekologik-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash kabilardan iborat bo‘ladi. Ayniqsa, iqtisodiy mexanizmlar ekologik boshqaruvda davlat siyosati bilan bozor mexanizmlarini uyg‘unlashtiradi. Natijada, ekologik toza rivojlanish erishiladigan maqsadga aylanadi.

Har bir mintaqaning ekologik muammolari uning tabiiy sharoiti, sanoat korxonalarini faoliyati va iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, quyidagi keltirilgan omillar mintaqalarda ekologik muammolarni yuzaga keltiradi:

- sanoat korxonalarining ekologik talablarga to‘liq rioya qilmasligi. Bu borada ko‘pgina mintaqalarda sanoat korxonalarini eski texnologiyalar asosida ishlaydi. Bu esa havoning ifloslanishiga, suv resurslarining kimyoviy buzilishiga va yerning degradatsiyasiga olib keladi.

- qishloq xo‘jaligida kimyoviy vositalardan ortiqcha foydalanish. Unga asosan, o‘g‘itlar va pestitsidlarni me‘yordan ko‘p qo‘llash tuproq unumdorligini pasaytiradi hamda mahsulot tarkibidagi nitratlar oshadi va suv havzalari ifloslanadi.

- chiqindilarni boshqarish sustligi. Bu bo‘yicha qattiq maishiy va sanoat chiqindilarini qayta ishlash darajasining pastligi mintaqada ekologik xavfni oshiradi.

- aholining ekologik madaniyati yetarli emasligi. Natijada, aholi ekologik gigiyena va chiqindilarni saralash bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganda, ekologik xavf kuchayadi.

Shular bilan birgalikda, mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlarni qo‘llashda moliyalashtirishning yetarli emasligi, texnologik eskirish, nazoratning yetarlicha kuchli emasligi hamda aholi va tadbirkorlik subyektlari ekologik savodxonlik darajasining pastligi kabi muammolar ham mavjud bo‘ladi. Mazkur keltirilgan muammolar iqtisodiy mexanizmlarning to‘g‘ri va samarali joriy qilinmasligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, mintaqada quyidagi iqtisodiy-ekologik mexanizmlarning shakllaridan samarali foydalaniladi:

- soliqlar va ekologik to‘lovlar. Unga asosan, ekologik soliqlar sanoat korxonalarini ifloslanishni kamaytirishga majbur qiluvchi iqtisodiy ta‘sir vositasidir. Bularga atmosfera emissiyasi uchun to‘lov, suvdan foydalanish to‘lovi va chiqindilarni joylashtirish to‘lovi kiradi. Ushbu to‘lovlar korxonalar uchun xarajat bo‘lgani sababli ular ekologik toza texnologiyalarga o‘tishga intiladi.

- rag‘batlantiruvchi subsidiyalar. Bu borada davlat ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali korxonalarini energiya tejankor texnologiyalar, filtratsiya uskunalari va qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish kabi yo‘nalishlarda faol bo‘lishga undaydi.

- ekologik audit va sertifikatlash. Bu borada ekologik audit korxonalar faoliyatining ekologik talablarga mosligini tekshiradi. Sertifikatga ega korxonalar soliq imtiyozlari va kreditlarda yengilliklar berilishi mumkin.

- chiqindi bozorini shakllantirish. Shunga asosan, chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga imtiyozlar berish orqali qayta ishlash darajasi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va mintaqa ekologik yuklamasi kamayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlarni samarali qo'llash quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

1) Ekologik monitoring tizimini kuchaytirish. Unga asosan, mamlakat mintaqalarida ekologik nazoratni kuchaytirish orqali ifloslanish manbalari aniqlanadi va ularga qarshi iqtisodiy choralar belgilanadi.

2) Texnologik modernizatsiya. Unga ko'ra, korxonalarda energiya tejamlar uskunalari, zamonaviy filtrlash moslamalari va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalari kabilarni yangilash talab etiladi.

3) Yashil iqtisodiyotga o'tish. Bu borada yashil iqtisodiyot orqali resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash kengayadi va ekologik xavfsizlik ta'minlanadi.

4) Tabiiy resurslardan barqaror foydalanish. Ushbu yo'nalish suv va yer resurslari, o'rmonlar va biologik xilma-xillikni saqlashni o'z ichiga oladi.

5) Aholi ekologik madaniyatini oshirish. Bu borada ekologik ta'lim, targ'ibot va ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologiyaga nisbatan mas'uliyatini oshirish mintaqa barqarorligiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlardan samarali foydalanish ekologik muhitni sog'lomlashtirish, iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va aholining farovonligini oshirishning muhim omili bo'lib qaraladi. Ekologik soliq va rag'batlantirish tizimlarini to'g'ri shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash ulushini oshirish, shuningdek ekologik nazoratni kuchaytirish orqali mintaqalar ekologik-iqtisodiy barqarorlikka erishishi mumkin. Bu holatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash faqat davlat emas, ya'ni tadbirkorlar, aholi va nohukumat tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada iqtisodiy-ekologik mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amaliyotda qo'llash lozim:

- ekologik soliq tizimini optimallashtirish orqali soliqlarni ifloslanish darajasi bilan bog'liq tarzda differensiallashtirish va ekologik zarar yuqori bo'lgan hududlarda qo'shimcha ekologik to'lovlar joriy etish;

- yashil texnologiyalar uchun grantlar va kreditlar orqali "yashil kredit" dasturi, imtiyozli foiz stavkalari va ekologik startaplarni qo'llab-quvvatlashning mintaqa rivojiga ijobiy ta'sirini oshirish;

- chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqalarda zamonaviy qayta ishlash zavodlarini qurish hamda plastik, metall, qog'oz va organik chiqindilarni alohida qayta ishlash tizimini joriy etish;

- raqamlashtirilgan ekologik monitoring qilish orqali sensorlar, dronlar va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari yordamida ekologik holatni kuzatish;
- aholi uchun ekologik ma'rifat dasturlarini taqdim qilish orqali maktab, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik madaniyatni keng targ'ib etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 41-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/5836850>
2. Lipieta A., Malawski A. Eco-mechanisms within economic evolution: Schumpeterian approach. // *Economic Structures*, 10, 4, 2021. <https://doi.org/10.1186/s40008-021-00234-8>
3. Bekjanov D.Y. Mintaqaning ekologik-iqtisodiy jihatlarini raqobatbardoshlikka ta'sirini baholash. // *Молодой ученый*, 2016, №12.4 (116.4). — с. 35-38. — URL: <https://moluch.ru/archive/116/32205>.
4. Rahmonazarov P.Y. Hududlarda iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarish samaradorligini oshirish mexanizmlari. // *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2022, 2 (4). — 75-82 b.
5. Плаксина А.В. Экономические и экологические аспекты эффективности использования природных ресурсов региона. // *Журнал Вестник Адыгейского государственного университета, Серия 5*, 2010, Экономика. — с. 82-86.
6. Петрова Е.Е., Курочкина А.А., Волотовская О.С. Экономика природопользования. Учебное пособие. — Санкт-Петербург: РГГМУ, 2021. — с. 67.
7. Dorgushaova A.K., Ashinova M.K., Kuizheva S.K., Zarubin V.I., Kalashaova M.K. (2020). Improvement of the Mechanism of the Regional Ecological and Economic System Regulation. In: Bedanokov M.K., Lebedev S.A., Kostianoy A.G. (eds) *The Republic of Adygea Environment. The Handbook of Environmental Chemistry*, vol 106. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/698_2020_496



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**